



SOCIO-POLITICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF HISTORICAL AND ANALYTICAL THINKING OF YOUNG PEOPLE

Dilafruz Komilovna Nuritdinova

Independent Researcher

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: society, historical identity, social solidarity, youth, worldview, philosophical worldview, socio-philosophical factors, historical consciousness, social development, scientific worldview, concept, humanism.

Received: 21.06.26

Accepted: 22.06.26

Published: 23.06.26

Abstract: This article proposes to classify the sociocultural foundations of the issue of historical identity and social solidarity in modern society, concretize the features of the manifestation of historical identity and social solidarity, demonstrate the combination of historical identity and social solidarity in modern society, harmonize historical identity and social solidarity in modern society proposals and recommendations for the development of recommendations.

YOSHLARDA TARIXIY-ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY-SIYOSIY OMILLAR

Dilafruz Komilovna Nuritdinova

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jamiyat, tarixiy o'zlik, ijtimoiy birdamlik, yoshlar, dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, ijtimoiy-falasafiy omillar, tarixiy ong, ijtimoiy taraqqiyot, ilmiy dunyoqarash, konsepsiya, insonparvarlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda tarixiy o'zlik va ijtimoiy birdamlik masalasining ijtimoiy-madaniy asoslarini tasniflash, tarixiy o'zlik va ijtimoiy birdamlikni namoyon bo'lishi xususiyatlarini aniqlashtirish, zamonaviy jamiyatda tarixiy o'zlik va ijtimoiy birdamlik uyg'unligini ko'rsatish, zamonaviy jamiyatda tarixiy o'zlik va ijtimoiy birdamlikni uyg'unlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В РАЗВИТИИ ИСТОРИКО-АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Дилафруз Комиловна Нуриддинова

Независимый исследователь

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: общество, историческая идентичность, социальная солидарность, молодежь, мировоззрение, философское мировоззрение, социально-философские факторы, историческое сознание, социальное развитие, научное мировоззрение, концепция, гуманизм.

Аннотация: В данной статье предлагается классифицировать социокультурные основы вопроса исторической идентичности и социальной солидарности в современном обществе, конкретизировать особенности проявления исторической идентичности и социальной солидарности, продемонстрировать сочетание исторической идентичности и социальной солидарности в современном обществе, гармонизировать историческую идентичность и социальную солидарность в современном обществе предложения и рекомендации по разработке рекомендаций.

Kirish. Tafakkurning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida tarixiy tafakkurning g‘oya bilan o‘zaro aloqadorligi masalasi juda murakkab va ko‘p qirralidir. Bu holat nimada namoyon bo‘ladi, degan haqli savol tug‘iladi. So‘ngi yillarda xalqimiz milliy o‘zligini anglashida muhim o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu jarayonda milliy zaminlarimiz bulog‘idan ozuqa olayotgan milliy yuksalish g‘oyasi etakchi ahamiyat kasb etmoqda. Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g‘oyalar muhim o‘rin tutadi. SHu ma’noda aytish mumkinki, insoniyat tarixi – g‘oyalar tarixidan iboratdir. Har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi. O‘z manfaatlarini, maqsad-muddaolari, orzu-intilishlarini ko‘zlab harakat qiladi.

Inson va jamiyat hayotida muhim islohot va o‘zgarishlarni amalga oshirishda muayyan g‘oyalar inson faoliyatiga rahnomalik qiladi, o‘ziga xos alohida o‘rin tutadi. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarda keskinlashuvi yoki sekinlashuvi, yuksak taraqqiyot-u zalvorli inqirozlar, jamiyat hayotida ijobiy yoki salbiy holatlarning ro‘y berishi, jamiyatda qanday g‘oyalar hukmronlik qilishi, ular ma’naviy-ahloqiy negizlarga tayanganligi, qaysi bir ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Inson ongi, aql-zakovati, tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Shunday ekan g'oyalar ham inson tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr, qarash, mulohaza yoki bo'lmasa nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Falsafiy tafakkur erishgan natijalarga tayangan holda bugungi kunda g'oyaning mohiyat-mazmuni, gnoseologik maqomi to'g'risida umumiy xulosalarga kelindi: g'oya voqelik va hayot ta'sirida vujudga keladigan, uni aks ettirish asosida shakllanadigan dunyoni bilishning o'ziga xos shakllaridan biridir. U shaxs, jamiyat, ijtimoiy guruh, partiya va boshqalarning muayyan maqsadlarini ifodalaydi, ularni bu yo'lda birlashtiradi, uyushtiradi, faoliyatga undaydi, safarbar qiladi; milliy g'oya – milliy ongni uyg'otuvchi, millatning o'zligini anglatuvchi, o'ziga xoslikka, mentalitetga «qiyofa» baxsh etuvchi, milliy ruhiyat, g'urur, iftixor, e'tiqod va mas'ullik tuyg'ularini shakllantiruvchi fikrdir; millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini anglashni o'zida mujassamlashtirgan, uning etnoijtimoiy birlik sifatidagi tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalaydigan, taraqqiyotiga xizmat qiladigan g'oyaga milliy g'oya deyiladi; milliy g'oya – mamlakat xalqini olg'a etaklovchi ezgu fikrlar to'plami; milliy istiqbol g'oyasi – har bir vatandoshimiz, butun jamiyatimiz a'zolari uchun Vatan oldidagi burchi va mas'uliyatini ijro etishga safarbar etuvchi axloqiy mezondir; milliy g'oya – millatning oliy idealini (omolini), uzoq muddatli maqsadlarini, orzu-umidlarini, irodasini, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos tarixiy «da'vosini» umumiy shaklda ifodalaydi. U sodda va tushunarli tarzda ikki og'iz so'zda biz intilayotgan, qurayotgan jamiyatning mohiyatini ifodalashi lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'zbekistonda tarix, tarixiy o'zlik, tarixiy ong va xotira, milliy o'zlikni anglash masalalarini bilan muntazam shug'ullangan olimlardan P.Saidov, J.G'ulomov, I.Mo'minov, A.Asqarov, N.Jo'raev, D.Alimova, T.Jo'raev, H.Sultonov, A.Erkaev, S.Otamuratov, U.Saidov, A.Ibroximov, Z.R.Ishanxodjaeva, R.Raxmonov, F.Fayziev, U.K.Kayumova, R.M.Abdullaev, V.Alimasov, N.Xakimov, Q.Nazarov, A.Choriev, S.Choriev, O.M.G'aybullaev, S.S.Otamuratov va boshqalarning asarlarini ta'kidlash lozim. Ularning asarlarida tarixiy tafakkur, tarixiy ong va xotiraning turli jihatlari aks ettirilgan.

MDH olimlaridan tarixiy bilimlar va tarixiy tafakkurning tabiati masalalari bilan A.I.Rakitov, G.Lukach, I.Berlin, I.P.Veynberg, Yu.A.Levada, Yu.Afanasev, V.P.Yakovlev, I.Kon, M.Barg, A.V.Guliga, I.L.Merzlyakova, A.X.Samievlar shug'ullanganlar.

Xorijlik olimlardan ushbu masala bilan shug'ullangan taniqli chet ellik olimlari qatorida R.Kollingvud, M.Blok, K.Yaspers, A.Toynbi, R.Aron, F.X.Baur, E.Seller, A.Shvengler, F.A.Shtaudenmayer, D.Shtraus va boshqa bir qator mutaxassislarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Natijalar va muhokama. Ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan tarixiy janrdagi

badiiy adabiyot o'zida millatning kechmishini, dardu-hasratini, quvonchu-iztiroblarini, tafakkur tarzini aks ettiradi. Ushbu janrdagi asarlarda insonga muhabbat, o'zaro mehr-oqibat g'oyalarining ustuvorligi millat hayotida ijobiy ahamiyat kasb etsa, g'ayriinsoniy g'oyalar, o'tmishni yuzaki yoritish kabi xususiyatlar ustunligi millatni jaholatga, o'zligidan adashishiga yo'l ochadi [1, 35].

Jumladan, D.S.Abdullaevaning ta'kidlashicha, asrlar osha turli ko'rinishlarda saqlanib kelgan o'tmish haqidagi bilimlar ertangi kun uchun zarur bo'lgan xulosalarni chiqarishga zamin bo'ladi. Millatning o'tmish haqidagi tasavvurlari milliy til, urf-odatlar, tarixiy janrdagi badiiy adabiyot namunalari, maqollar, dostonlar, tarixiy qo'shiqlar va xalq og'zaki ijodining boshqa shakllari, joy nomlari kabi ma'naviy, arxitektura yodgorliklari, nodir kitoblar, qo'lyozmalar, buyumlar kabi moddiy madaniyat shakllarida mujassamlashgan milliy tarixiy xotira haqida ham shunday deyish mumkin. Obyektivlashgan moddiy va ma'naviy madaniyat elementlari esa, sub'ektiv shakldagi milliy tarixiy xotiraning u yoki bu qatlamlarining aktuallashuvining muhim manbai hisoblanadi.

A.S.Ochildievning fikricha, tarixiy janrda yozilgan badiiy adabiyotlar tarix, ajdodlarning hayot yo'li, ularning ko'rsatgan jasoratlarini yoritish orqali ibrat namunasiga aylangan holda asl tarbiyachiga, millat tarixiy xotirasini uyg'otuvchi muhim omilga aylanib boradi. A.Qodiriyning «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», Oybekning «Navoiy», H.Olimjonning «Muqanna», O.Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi», P.Qodirovning «Yulduzli tunlar», «Humoyun va Akbar» kabi tarixiy janrdagi badiiy asarlari va ular asosida yaratilgan filmlar, spektakllar millatimiz tarixiy xotirasining o'sishida muhim rol o'ynagan va o'ynab kelmoqda. Ularning qimmatini aniq bir tarixiy shaxs yoki davrga bog'langani bilan emas, balki ma'lum davrga xos bo'lgan hayot va tafakkur tarzi, urf-odat va an'analar, xalqning madaniyati haqidagi yaxlit tasavvur hosil qilishga yordam berishi bilan ham belgilanadi [2, 109]. Ayni paytda, bunday adabiyotlarni mutolaa qilish orqali o'quvchi bayon etilayotgan hodisadan ta'sirlanib, lazzat oladi, asarning bosh qahramonlariga ijobiy taqlid yuzaga keladi deyish mumkin. Qolaversa, o'z ajdodiga, uning faoliyati, xatti-harakatiga nisbatan hurmat, o'rnak olish hissi uyg'onadi.

Hozirgi vaqtgacha amalga oshirilgan tadqiqot ishlari tahlili asosida yoshlarda tarixiy-analitik tafakkurni rivojlantirish omillarini quyidagi to'rt guruhga tasniflashni lozim, deb topdik: ijtimoiy-siyosiy, milliy-ma'naviy, psixologik va pedagogik.

Birinchi prezident I.Karimov asarlari o'zida tarixiy tafakkurni rivojlantirishga doir quyidagi metodologik asoslarni to'liq aks ettiradi: milliy o'zlikni anglash g'oyasi; milliy o'zlikning ustuvor bo'lishi; millat va vatanparvarlik g'oyasi; «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» tamoyili; «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi» g'oyasi; «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari»

g'oyasi; «YAngi uy qurmay turib eskisini buzmaslik» falsafasi; «Fikr qaramligi, tafakkur qulligiga barham berish» g'oyasi; «Milliy davlatchilikni tiklash va uni modernizatsiyalash» g'oyasi; «Milliy tarixiy qadriyat va ma'naviyatni tiklash hamda taraqqiy ettirish» g'oyasi va boshqalar.

Yoshlarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda prezidentimiz Sh.Mirziyoevning asarlari eng muhim dasturul amal bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Prezident Sh.Mirziyoevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”, “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”, “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”, “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”, “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”, “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”, “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”, “YAngi O‘zbekiston strategiyasi” kabi asarlarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish, ana shu asosdan kelib chiqqan holda, yangicha fikrlash tarzini qaror toptirish masalalari chuqur yoritib berilgan.

G'oya inson tafakkurining mahsuli sifatida milliy-madaniy merosdan oziqlanadi, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi, ijtimoiy-ma'naviy hayot va tevarak-olamni o'rganish, tahlil qilish jarayonida toblanadi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari ilm-fan, falsafa, din, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat, huquq sohalarida muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi.

Har qanday hodisa kabi tarixiy tafakkur rivojida ham doimiy o'zgarish va rivojlanish sodir bo'lishi tabiiy. Bunda xilma-xil omillarning o'ziga xos ta'siri va o'rni borligini ko'rish mumkin. Ularning ichida siyosiy omil alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir jamiyatning hayoti amaldagi siyosatning o'qi atrofida kechadi. Shuning uchun ham, ushbu ta'sir olib borilayotgan siyosat mohiyatidan kelib chiqib kuchli ijobiy yoki salbiy mazmunga ega bo'lishi mumkin [1, 54].

Siyosiy omil – jamiyat hayotida siyosiy jabhada ro'y berayotgan jarayonlarni harakatga keltiruvchi sabab sifatida chiqib pozitiv yoki negativ ta'sirga ega bo'lishi, to'siq qo'yishi, cheklashi yoxud aksincha rag'batlantirish vazifasini bajarishi mumkin.

Jamiyatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichi inson omilining, shaxs ijtimoiy-siyosiy faoliyatining qonuniy ravishda o'sib borayotganligi bilan ajralib turadi. Bu bejiz emas, chunki barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan iborat bo'lgan shaxsning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ishga solishning yangidan-yangi yo'llari va imkoniyatlarini qidirib topmasdan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirib bo'lmaydi.

Insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ijtimoiy hayot uchun eng muhim vazifalardan biri – shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonini amalga oshirishdir. Boshqacha qilib aytganda,

insonning ijtimoiy hayoti, uning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi va mavjud siyosiy tuzum bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi, mafkura va qonunchilik, ma’naviy qarashlar va qadriyatlar tizimini o‘zlashtirib borishi hamda ijtimoiy-siyosiy harakatlarda, jamoatchilik ishlarida ishtirok etishi va jalb etilishi jarayonida amalga oshib boradi. O‘z navbatida, siyosiy hayotga qadam qo‘ygan yangi avlodning ijtimoiylashuvi, jamiyat hayotidagi siyosiy jarayonlar uzluksizligini va siyosiy taraqqiyotning vorisiyligini ta’minlaydi. Bu esa, davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar mutanosibligi erishuviga imkon beradi hamda mavjud tuzumning barqaror rivojlanishini kafolatlaydi.

Siyosiy ijtimoiylashuv – shaxsning siyosiy tizimdagi mavjud siyosiy e’tiqod, qarashlar, yo‘nalishlar, siyosiy qadriyatlar va normalarni o‘zlashtirish jarayonidir [3, 93].

Siyosiy ijtimoiylashuvning ikkinchi bosqichi yoshlarning ilm olish jarayonida qabul qilgan axborotlarini qayta ishlashi hamda har qanday guruh tomonidan ko‘rsatilayotgan ta’sirga mustaqil mafkuraviy pozitsiyani bayon qilishi, madaniy me’yor va an’analarni qayta baholashi bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunda buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun siyosiy etuk, ma’rifatli, o‘zining o‘tmishi, uning qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifadir. Faylasuf olim G.Tulenova tomonidan yoshlarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish bilan bog‘liq tarzda «siyosiylashuv» tushunchasi iste’molga kiritilgan bo‘lib, uning ta’kidlashicha, mazkur jarayonning mohiyati konkret-tarixiydir va u yoshlarning shakllanishi hamda jamiyat rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Yoshlar siyosiylashuvi bilan bog‘liq faoliyatni quyidagi turlarga ajratish mumkin: a) davlat; b) jamoaviy; v) individual [4, 123].

Tarixiy tafakkurning ma’naviy omillari xususida fikr yuritar ekanmiz, ona zamin, Vatanga bo‘lgan muhabbat, ilmiy madaniy va adabiy merosimiz, umuminsoniy qadriyatlarni alohida e’tirof etish lozim.

Xalqimiz o‘zining g‘oyatda boy ilmiy, falsafiy, adabiy va madaniy merosi bilan jahonga mashhurdir. Yurtimiz dunyoga ilm-fanning, madaniyatning barcha sohalarida ko‘plab buyuk siymolarni etkazib berdi. Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Mirzo Ulug‘bek kabi allomalarni, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Furqat, Muqimiy kabi mutafakkirlarni jahon madaniyati xazinasiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. 1004 yilda Urganchda «Ma’mun Akademiyasi» tashkil etilib unda ijod qilgan olimlar soni 300 tadan oshgan. Bu dargoh ilm-fanning turli sohaları bo‘yicha samarali ishlarni olib bordi. Astronomiya, riyozat, tibbiyot, falsafa, mantiq, musiqa, adabiyot va boshqa fanlar rivojiga katta e’tibor berildi. Turkiston azal-azaldan ilm-fan va madaniyatning adabiyot va san’atning eng

qadimiy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, IX–XV asrlarda Turkiston xalqlari safidan Sharq va G'arbda o'rta asr matematika ilmi va maktabining asoschisi al–Xorazmiy, «Ustodi soniy» – «Ikkinchi muallim» yoki sharq Aristoteli unvoniga sazovor bo'lgan Abu Nasr Forobiy, tibbiyot ilmining etakchisi «Shayx ur – rais» – olimlar podshosi Abu Ali ibn Sino SHarqningina emas, balki butun insoniyatning faxr-iftixori, qomusiy aql egasi Abu Rayxon Beruniy, o'rta asr astronomiyasining yorug' yulduzi al-Farg'oniy, hadis va fikhnining buyuk allomalari imom Ismoil Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, donishmand podshoh, yulduzlar jadvalining asoschilaridan biri Mirzo Ulug'bek, mumtoz she'riyatning yorqin yulduzlaridan hisoblangan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari yuzlab va minglab ulug' zotlar va ulamolar etishib chiqqan. Sharqdan, xususan, Turkiston o'lkasidan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar jahon ilm-fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari va ulkan ilmiy asarlari bilan ijodiy boyitdilar, yuqori cho'qqiga ko'tardilar, uning bir necha asrlik taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatishdi.

Xulosa. Har bir millat jahon sivilizatsiyasida o'z o'rnini egallashga intilar ekan, u milliy madaniy meros bilan cheklanib qola olmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarsiz insoniyat tomonidan ko'p asrlar davomida to'plangan tarixiy falsafiy, axloqiy, ilmiy va diniy merossiz mafkura haqida gapirish o'z-o'zini maqtashdan nariga o'tmaydi. Har bir xalqning tarixiy, madaniy va ma'naviy merosida umuminsoniy qadriyatlar ham o'ziga xos shakllar va ko'rinishlarda ifoda etilgan bo'ladi. Milliy qadriyatlarni tiklash jahon ma'naviyati va umuminsoniy qadriyatlardan ajralgan holda sodir bo'lmaydi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'zaro uzviy bog'langan, bir-biriga ta'sir etadi. Chunki, umuminsoniy qadriyatlarda butun insoniyatning, shu jumladan, o'zbek xalqining ham intilishlari o'z ifodasini topadi. Xalqimizning qadriyatlarga sodiqligini inobatga olib, insoniyat tomonidan yaratilgan, uning asrlar osha avaylab asrab kelgan adolat, insonparvarlik va tenglik an'alarini qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, har bir kishining kamol topishiga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishda namoyon bo'lmoqda.

Yoshlarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish ko'plab psixologik omillar ta'sirini hisobga olishni talab etadi. Jumladan, o'z-o'zini anglay bilishi, ya'ni o'z-o'ziga baho berish mayli va istagi kabi ustanovkalar; o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslashi; fikrlarini erkin, ochiq, mazmunli ifodalashi; o'zgalarning fikrini eshita olishi va murosqa qila olish kabi emotsional xususiyatlar, shaxs motivatsion sohasi rivoji mazkur jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish bilan bog'liqlikda tarixiy bilimlarni egallashga ehtiyoj quyidagi jihatlarda yorqin namoyon bo'ladi:

tarixiy bilimlarga ega bo'lish insonda o'z hayotini va o'zidan avval yashab o'tgan ajdodlari turmushini birma-bir taroziga solib, ijobiy tomonlaridan saboq chiqarishga, salbiy tomonlaridan tegishli xulosa chiqarishga imkon beradi;

tarixiy bilimlar asosida odamzotning insoniy mohiyati, uning aql-zakovati, qudrati va salohiyatining nimalarga qodirligi haqida aniq xulosalar chiqara oladi;

o'tmish bilan kelajak o'rtasida turib, o'zining ajdodlar va avlodlar oldidagi mas'uliyati, kishilik jamiyati tamadduniga taqdiridosh, mas'ul va daxldor ekanligini anglab etadi.

Tarixiy ong, tarixiy xotira va tarixiy bilimni tarkib toptirish orqali yoshlarda tarixiy dunyoqarash tarkib topadi. O'z navbatida, tarixiy dunyoqarash yoshlarda keng ko'lamda tarixiy tafakkur yuritish imkonini hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаева Д.С. Миллий тарихий хотиранинг моҳияти ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Дисс. ... фал. фан. ном. – Т., 2006. – Б. 35.
2. Ачилдиев А.С. Проблема взаимодействия национального самосознания и национальной культуры: Автореф...канд.филос.наук. – Т., 1994. –С. 109.
3. Қодиров Э. Ёшлар сиёсий маданиятини шакллантириш омиллари. // Жамият ва бошқарув. – Т., 2009. - №4. – Б.93.
4. Туленова Г.Ж. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли (Ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фал. фан. док. ...дисс. – Т., 2006. –Б. 123.